XOLIYOR SAFAROV HIKOYALARIDA ONA OBRAZI RUHIYATIGA CHIZGILAR

Valijonova Sarafroz
Majidova Durdona
Musurmonova Mohichehra
Muhammadiyeva Xosiyat
O‘zMPU talabalari.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24385600

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos vakillaridan biri Xoliyor Safarov hikoyalarida ona obrazi ruhiyatining badiiy talqini tadqiq etiladi. Adibning “Ona”, “Ona vidosi”, “Onamning yolg‘onlari”, “To‘ti Momo” kabi hikoyalarida gavdalangan ona obrazlarining ichki kechinmalari, mehr-muhabbati, farzand taqdiri uchun iztiroblari, sabr-matonati va ma’naviy olami tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining ona qalbidagi murakkab psixologik jarayonlarni tashqi harakat, dialog, ruhiy holat, xotira va badiiy detal vositasida ifodalash mahoratiga e’tibor qaratiladi. Ona obrazining individual va umumlashma xususiyatlari, uning milliy qadriyatlar hamda insoniy munosabatlar tizimidagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xoliyor Safarov, ona obrazi, badiiy psixologizm, ruhiy kechinma, ona mehri, ichki monolog, psixologik tasvir, milliy qadriyat, ona va farzand munosabati.*

Аннотация. *В статье исследуется художественная интерпретация психологического мира образа матери в рассказах современного узбекского писателя Холиёра Сафарова. На примере произведений «Мать», «Прощание матери», «Ложь моей матери», «Тути Момо» анализируются внутренние переживания матерей, их любовь, тревога за судьбу детей, терпение и духовный мир. Особое внимание уделяется художественным средствам раскрытия психологических процессов посредством диалога, поведения, воспоминаний и художественных деталей.*

Ключевые слова: *Холёр Сафаров, образ матери, художественный психологизм, душевные переживания, материнская любовь, внутренний монолог, психологическое изображение, национальные ценности.*

Abstract. *This article examines the artistic interpretation of the psychological world of the mother figure in the short stories of contemporary Uzbek writer Kholiyor Safarov. Through the analysis of “Mother”, “Mother’s Farewell”, “My Mother’s Lies” and “Tuti Momo”, the study explores mothers’ inner experiences, unconditional love, concern for their children, patience and spiritual values. Particular attention is paid to the writer’s use of dialogue, actions, memories and artistic details to reveal complex psychological processes.*

Keywords: *Kholiyor Safarov, mother image, literary psychologism, inner experiences, maternal love, inner monologue, psychological portrayal, national values.*

Kirish

Badiiy adabiyotda ona obrazi insoniyatning ma’naviy-axloqiy qarashlari, milliy o‘zligi va ruhiy olamini ifodalovchi eng muhim timsollardan biri hisoblanadi. Ona siymosi orqali insonning hayotga munosabati, mehr-oqibat, fidoyilik, sabr, vafodorlik, farzand oldidagi mas’uliyat kabi tushunchalar badiiy ifodasini topadi.

Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek nasrida ona obrazining talqini an’anaviy mehribonlik va fidoyilik tasviri doirasidan chiqib, uning murakkab ichki dunyosi, ijtimoiy muhit bilan munosabati, ruhiy ziddiyatlari va hayotiy tanlovlarini ochib berish tomon kengaymoqda.

Xoliyor Safarov ijodida ham inson ruhiyatini anglash, oddiy hayotiy vaziyatlar zamiridagi murakkab ma’naviy-psixologik holatlarni tasvirlash muhim o‘rin egallaydi. Adib qahramonlari ko‘pincha kundalik turmush tashvishlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muammolar va insoniy burchlar qarshisida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ularning xarakterini balandparvoz ta’riflar orqali emas, balki oddiy xatti-harakatlar, tabiiy dialoglar, hayotiy vaziyatlar va ruhiy kechinmalar vositasida ochadi.

Adibning ona obraziga murojaatida ham ayni shu badiiy tamoyil kuzatiladi. Uning hikoyalaridagi onalar faqat farzandiga mehr ko‘rsatuvchi yoki oilaning ma’naviy tayanchi bo‘lgan qahramonlar emas, balki o‘z dardi, xavotiri, orzu-umidi, ichki iztirobi va ruhiy qarama-qarshiliklariga ega individual xarakterlardir. Shu jihatdan yozuvchi ijodida ona ruhiyatini o‘rganish badiiy psixologizmning o‘ziga xos qirralarini aniqlash imkonini beradi.

Asosiy qism

Ona qalbining tabiiy kechinmalari va psixologik tasviri

Xoliyor Safarovning “Ona” hikoyasida ona obrazining ruhiy olami kundalik hayotdagi oddiy, ammo insoniy mazmuni chuqur bo‘lgan vaziyat orqali yoritiladi. Hikoya qahramoni – ikki oyog‘i gipslangan, harakatlanish imkoniyati cheklangan muallima. Jismoniy jihatdan qiynalayotgan ayolning ruhiy holati esa kenja farzandi bilan muloqot jarayonida ochiladi.

Asarda ona uchun farzand shunchaki ovunchoq emas, balki hayotga bog‘lab turuvchi ruhiy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Ayolning kasallik tufayli yuzaga kelgan yolg‘izlik hissi bolakayning harakatlari, beg‘ubor qiliqlari va yonida bo‘lishi bilan bir qadar yengillashadi. Bu holat ona ruhiyatining muhim xususiyatini – farzand bilan ma’naviy yaqinlikka ehtiyojni ifodalaydi.

Hikoyadagi asosiy psixologik vaziyat bolaning issiq plitaga tegib ketishi bilan yuzaga keladi. Ona o‘zining jismoniy holatini unutib, farzandini qutqarishga shoshiladi. Bu o‘rinda muallif ona ruhiyatidagi tabiiy instinkt, onalik mas’uliyati va farzandga daxldorlik tuyg‘usini harakat orqali ifodalaydi. Qahramonning o‘z og‘rig‘ini unutishi, butun e’tiborini bolasiga qaratishi uning ichki dunyosidagi ustuvor qadriyatni namoyon etadi.

Mazkur epizodda yozuvchi psixologik tasvirning muhim usullaridan biri bo‘lgan *xatti-harakat orqali ruhiyatni ochish* tamoyilidan foydalanadi. Ona o‘z kechinmalarini uzun monologlar bilan bayon qilmaydi. Uning ruhiy holati kutilmagan vaziyatdagi harakati, farzandini bag‘riga bosishi, ovutishi va o‘z dardini ikkinchi o‘ringa surishi orqali namoyon bo‘ladi.

Demak, “Ona” hikoyasida onalik mehri mavhum, umumiy tushuncha sifatida emas, balki muayyan hayotiy vaziyatda namoyon bo‘ladigan ruhiy ehtiyoj va mas’uliyat sifatida tasvirlangan.

Yozuvchi ona mehrining tabiiyligini aynan voqea dinamikasi orqali asoslaydi.

Ona ruhiyatida qo‘rquv, sog‘inch va umid ziddiyati

Xoliyor Safarovning “Ona vidosi” hikoyasida ona obrazining ruhiy olami yanada murakkab ijtimoiy-psixologik vaziyatda namoyon bo‘ladi.

Asarda Ikkinchi jahon urushi davri, urushning oddiy oilalar hayotiga olib kirgan iztiroblari va ona qalbida kechgan ruhiy ziddiyatlar tasvirlanadi. Muazzam xola obrazi orqali urushning inson qalbiga, xususan, ona ruhiyatiga yetkazgan ma'naviy zarari ochib beriladi.

Hikoyada ona uchun eng katta tashvish – farzandlarining taqdiri. Dastlab turmush o'rtog'i va katta o'g'li urushga ketishi, keyinchalik boshqa farzandlarining ham xavf ostida qolishi qahramonning ruhiy muvozanatini izdan chiqaradi. Bu holat ona qalbida qo'rquv, xavotir, umidsizlik va umidning bir-biri bilan almashinib turishiga sabab bo'ladi.

Muazzam xolaning ruhiy holatini belgilovchi asosiy omil – farzandlaridan ayrilib qolish xavfi. U uchun urush siyosiy yoki tarixiy hodisa bo'lishdan ko'ra, avvalo, oilaviy hayotga bostirib kirgan, ona qalbini iztirobga solgan fojia sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi shu tariqa katta tarixiy voqeani bir ayolning ruhiy kechinmalari orqali insoniy miqyosda yoritadi.

Asardagi quyidagi mazmuniy holat alohida e'tiborga molik: ona farzandini olib ketmoqchi bo'lgan harbiyga murojaat etarkan, uning ham onasi borligini eslatadi. Bu murojaat oddiy iltijo emas, balki onalik tuyg'usining umuminsoniy mohiyatini anglatadi. Muazzam xola qarshisidagi kishini harbiy yoki buyruq ijrochisi sifatida emas, balki ona mehrini tushunishi mumkin bo'lgan inson sifatida ko'rishga intiladi.

Hikoyada ona ruhiyatining yana bir muhim qirrasi – umid bilan yashash xususiyati.

Qahramon darvoza taqillaganida farzandlaridan xat yoki xabar kelgan bo'lishi mumkinligini o'ylaydi. Uning kutishi oddiy odat emas, balki ruhiy yashash shakliga aylanadi. Har bir tovush, har bir xabar ehtimoli uning qalbida yangi umid yoki yangi xavotir uyg'otadi.

Shu jihatdan "Ona vidosi" hikoyasida kutish motivi psixologik-falsafiy mazmun kasb etadi. Ona uchun vaqt farzandlaridan xabar kutish jarayoni bilan o'lchanadi. Uning ruhiy olamida kechayotgan iztirob tashqi voqealar bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi.

Yozuvchi qahramonning ichki kechinmalarini tabiat manzaralari, dialoglar va takroriy kutish holatlari bilan uyg'unlashtiradi. Ayniqsa, bahor faslining kelishi, tabiatning yasharishi va ona qalbidagi quvonchsizlik o'rtasidagi ziddiyat badiiy kontrastni yuzaga keltiradi. Tabiat yangilanishni ifodalasa, ona qalbi farzandlarining taqdiriga bog'liq xavotirlar bilan band. Natijada bahor manzarasi ham qahramon ruhiyatining o'ziga xos ifodasiga aylanadi.

Muazzam xola obrazi orqali yozuvchi ona ruhiyatining faqat mehr va fidoyilikdan iborat emasligini, unda qo'rquv, g'azab, ojizlik, iztirob va umid kabi murakkab kechinmalar ham mujassam ekanini ko'rsatadi. Bu esa obrazning hayotiyligi va psixologik ishonarliligini ta'minlaydi.

Ona xotirasi va farzand taqdiri: yolg'onning ruhiy-ma'naviy mohiyati

"Onamning yolg'onlari" hikoyasida ona obrazi oilaning moddiy qiyinchiliklari, farzandlar tashvishi va mehr-muhabbat bilan bog'liq ruhiy vaziyatlar doirasida namoyon bo'ladi. Asar nomining o'ziyoq kitobxonni muayyan psixologik savol qarshisida qoldiradi: ona nima sababdan yolg'on gapiradi va bu yolg'onning zamirida qanday ruhiy ehtiyoj mujassam?

Hikoya mazmunida oilaning iqtisodiy qiyinchiliklari, otaning mashaqqatli mehnati, bolalarning kasalligi va onaning tashvishlari muhim o'rin tutadi. Ushbu hayotiy sharoit ona xarakterining shakllanishi va uning ruhiy olamini anglash uchun muhim badiiy zamin yaratadi.

Asar sarlavhasidagi "yolg'on" tushunchasiga axloqiy jihatdan biryoqlama baho berib bo'lmaydi.

Chunki badiiy kontekstda uning ortida onaning farzandlarini asrash, ularni tashvishlardan imkon qadar himoya qilish istagi mujassam. Shu ma’noda yolg‘on tushunchasi ona mehrining o‘ziga xos ifoda shakli sifatida talqin etilishi mumkin.

Hikoya nomi va voqealar rivoji o‘rtasidagi munosabatda psixologik ziddiyat yuzaga keladi.

Odatda yolg‘on insonlar o‘rtasidagi ishonchga putur yetkazuvchi axloqiy hodisa sifatida baholanadi. Biroq ona obraziga munosabatda bu tushuncha boshqa ma’no kasb etadi. Ona ayrim haqiqatlarni farzandiga to‘liq anglatmaslik orqali uning ruhiyatini asrashga intilishi mumkin.

Bunday vaziyatda mehr va haqiqat, himoya va ochiqlik o‘rtasidagi murakkab munosabat yuzaga chiqadi.

Bu jihatdan hikoya ona ruhiyatidagi yashirin kechinmalarni o‘rganish uchun muhim material beradi. Onaning ichki olami faqat aytilgan so‘zlar orqali emas, balki uning farzandlari uchun qilayotgan harakatlari, oilaviy mas’uliyatni zimmasiga olishi va hayot qiyinchiliklariga munosabati orqali namoyon bo‘ladi.

Ona obrazining ma’naviy-axloqiy va milliy qirralari

Xoliyor Safarovning “To‘ti Momo” hikoyasida ona va ayol obrazining milliy-ma’naviy qirralarini anglash imkoniyati kengayadi. Asar nomining o‘zidayoq xalqona murojaat, avlodlar xotirasi va milliy ruh bilan bog‘liq ma’no qatlamlari seziladi. Yozuvchi ona timsolini faqat biologik onalik doirasida emas, balki oila va jamiyatning ma’naviy xotirasini saqlovchi shaxs sifatida ham talqin etadi.

Bu o‘rinda ona obrazi avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqaning muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Keksalik, hayotiy tajriba, urf-odatlarga sadoqat, insoniy munosabatlarni qadrlash singari jihatlar ayol obrazining ma’naviy mazmunini boyitadi.

Ona ruhiyatining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u o‘z hayotiy tajribasini faqat shaxsiy xotira sifatida saqlamaydi, balki uni farzandlar va keyingi avlodlarga yetkazishga intiladi.

Shu sababli ona obrazi milliy xotira va ma’naviy davomiylikni ta’minlovchi badiiy timsol darajasiga ko‘tariladi.

Adibning mazkur hikoyasini ona obrazining ijtimoiy-ma’naviy vazifasi nuqtayi nazaridan o‘rganish yozuvchi ijodidagi milliy ruh va psixologik tasvir munosabatini aniqlashga xizmat qiladi.

Yozuvchi hikoyalarida ona ruhiyatini ifodalashning badiiy usullari

Xoliyor Safarov hikoyalarida ona ruhiyatining tasvirlanishi bir necha badiiy-psixologik usullar bilan xarakterlanadi.

Birinchidan, **xatti-harakat orqali psixologik holatni ochish**. “Ona” hikoyasida qahramonning farzandi xavf ostida qolganida o‘z jismoniy holatini unutishi uning ruhiy olamini ochuvchi muhim vositadir.

Ikkinchidan, **dialog va nutqiy ifoda**. “Ona vidosi” hikoyasida Muazzam xolaning iltijolari, farzandlari haqidagi xavotirlari va harbiylar bilan muloqoti uning ichki ziddiyatlarini namoyon qiladi. Dialoglar qahramonning ruhiy holatini bevosita ifodalash bilan birga, uning ijtimoiy muhit bilan munosabatini ham ochadi.

Uchinchidan, **psixologik detal va ramziy ifoda**. Darvoza, xat, yo‘l, bahor manzarasi kabi badiiy unsurlar qahramonning kutish, sog‘inch va umid kechinmalari bilan bog‘lanadi. Ular voqea rivojiga xizmat qilish bilan cheklanmay, ruhiy mazmunni chuqurlashtiradi.

To‘rtinchidan, **nom va mazmun o‘rtasidagi psixologik munosabat**. “Onamning yolg‘onlari” hikoyasida sarlavhaning o‘zi kitobxonni ona ruhiyatidagi murakkablikni anglashga undaydi. Bu usul asarning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, **milliy xarakter va ruhiy kechinmalar uyg‘unligi**. Yozuvchi ona obrazlarini muayyan ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, urf-odat va qadriyatlar bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Natijada ona xarakteri umumiy insoniy mohiyatga ega bo‘lish bilan birga, milliy ruh bilan ham boyiydi.

Shu jihatdan adibning ona obrazlari badiiy psixologizmning tashqi va ichki tasvir shakllari uyg‘unligida yaratilgan. Qahramonning ruhiy olami ayrim hollarda bevosita nutq orqali, ayrim hollarda esa uning harakati, munosabati va hayotiy vaziyatlarga bergan javobi orqali ochiladi.

Xulosa

Xoliyor Safarov hikoyalarida ona obrazi ruhiyatini tahlil qilish yozuvchi ijodida insonning ichki dunyosi, oilaviy munosabatlar va milliy-ma’naviy qadriyatlar o‘zaro uzviy aloqada ekanini ko‘rsatadi. Adib ona obrazini bir xil xarakter xususiyatlariga ega an’anaviy timsol sifatida emas, balki turli hayotiy vaziyatlarda o‘ziga xos ruhiy holatlarni boshdan kechiruvchi individual qahramon sifatida gavdalantiradi.

“Ona” hikoyasida onalik mehrining tabiiyligi va farzandni himoya qilish instinkti, “Ona vidosi”da qo‘rquv, sog‘inch, umid va iztirobning murakkab uyg‘unligi, “Onamning yolg‘onlari”da farzandni asrashga qaratilgan ruhiy ehtiyoj va ma’naviy ziddiyatlar, “To‘ti Momo”da esa ona timsolining milliy-ma’naviy mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman, Xoliyor Safarov ona obrazini tasvirlash orqali inson qalbining eng nozik qatlamlariga murojaat qiladi. Uning hikoyalarida ona ruhiyati shunchaki mehr va fidoyilik timsoli emas, balki hayotning murakkab sinovlari qarshisida namoyon bo‘ladigan kuchli ma’naviy olam sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov X. Oy botmagan kechalar. – Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2010.
2. Safarov X. Qanotsiz qushlar. – Toshkent, 2015.
3. Safarov X. Nomus va hayot. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2019.
4. Safarov X. To‘ti Momo. – Toshkent: Ochun, 2018.
5. Safarov X. Onamning yolg‘onlari. – Toshkent: Ochun, 2024.
6. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – Toshkent: Fan, 1983.
7. Imomova G. Ruhiy iztiroblar. – Toshkent: Yozuvchi, 1992.
8. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979.